



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

UDK:614.2:616-074:911.3(575.172)

XORAZM VILOYATIDAGI LABORATORIYA XIZMATLARINING GEOGRAFIK TAQSIMOTI VA TASHKILIY TAHLILI



Nurmetova Yulduz Baltayevna

**Urganch davlat tibbiyot instituti, Harbiy dala terapiyasi,
gematologiya va diagnostika kafedrası assistenti**

Email: nurmetovayulduz132@gmail.com

ORCID: 0009-0007-1035-2877

Telefon raqam: +998-97-420-22-49

Annotatsiya. Xorazm viloyatida diagnostika xizmatlariga kirishuvchanlik laboratoriya infratuzilmasining geografik taqsimoti, tashkiliy tuzilmasi va klinik-biokimyoviy laboratoriyalarning mavjudligi asosida baholandi. Tadqiqot 2023-yil ma'lumotlariga tayangan holda viloyatning 12 ta tumani, Xiva tumani va shahri, Urganch tumani hamda markaziy tibbiyot muassasalarida (dispanserlar, shifoxonalar, poliklinikalar) jami 153 laboratoriyani qamrab oldi. Laboratoriyalar tuman tibbiyot birlashmalari, oilaviy poliklinikalar, poliklinikalar, qishloq vrachlik punktlari, oilaviy shifokor punktlari va boshqa muassasalarga ajratildi; shuningdek, ular klinik va biokimyoviy turlarga bo'lingan. Eng ko'p laboratoriyalar oilaviy poliklinikalarda (47,1%) joylashgan bo'lsa, eng kamlari qishloq vrachlik punktlarida (2,0%) topildi. Geografik taqsimot nomutanosib bo'lib, laboratoriyalarning ko'pchiligi Xazorasp, Shovot, Bog'ot va Qo'shko'pir tumanlarida, eng kamlari esa Tuproqqal'a tumanida va Xiva shahrida joylashgan. De-yarli barcha laboratoriyalar (150/153) ham klinik, ham biokimyoviy xizmatlarni taqdim etadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, Xorazm viloyatidagi laboratoriya infratuzilmasi miqdoriy jihatdan yetarli bo'lsa-da, uning hududiy taqsimoti notekis bo'lib, ayrim hududlarda diagnostika xizmatlariga kirishuvchanlik cheklangan. Shu bois, mobil laboratoriyalarni joriy etish va oilaviy shifokor punktlarini kengaytirilgan diagnostika imkoniyatlari bilan jihozlash tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: laboratoriya tarmog'i, geografik taqsimot, diagnostika kirishuvchanligi, Xorazm viloyati, klinik laboratoriya, biokimyoviy laboratoriya.

ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ РАСПРЕДЕЛЕНИЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЙ АНАЛИЗ ЛАБОРАТОРНЫХ УСЛУГ В ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ

Нурметова Юлдуз Балтаевна

Аннотация. Доступность диагностических услуг в Хорезмской области была оценена через анализ географического распределения лабораторной инфраструктуры, организационной структуры и наличия клиничко-биохимических лабораторий. Исследование основано на данных 2023 года и охватило 12 районов области, Хивинский район и город, Ургенчский район, а также центральные медицинские учреждения (диспансеры, больницы, поликлиники), всего



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

153 лабораторий. Лаборатории были классифицированы по типам: районные медицинские объединения, семейные поликлиники, поликлиники, сельские врачебные пункты, пункты семейных врачей и другие учреждения; также выделены клинические и биохимические лаборатории. Наибольшее количество лабораторий сосредоточено в семейных поликлиниках (47,1%), наименьшее — в сельских врачебных пунктах (2,0%). Географическое распределение лабораторий неоднородно: большинство расположено в Хазараспе, Шавоте, Боготе и Кушкупире, минимальное количество — в Тупроккале и Хиве. Практически все лаборатории (150/153) предоставляют как клинические, так и биохимические услуги. Результаты показывают, что, несмотря на количественную достаточность, территориальная диспропорция ограничивает доступность диагностических услуг в отдельных районах. Рекомендуется внедрение мобильных лабораторий и оснащение пунктов семейных врачей расширенными диагностическими возможностями.

Ключевые слова: лабораторная сеть, географическое распределение, доступность диагностики, Хорезмская область, клиническая лаборатория, биохимическая лаборатория.

GEOGRAPHICAL DISTRIBUTION AND ORGANIZATIONAL ANALYSIS OF LABORATORY SERVICES IN KHOREZM REGION

Nurmetova Yulduz Baltayevna

Abstract. The accessibility of diagnostic services in the Khorezm region was assessed through the analysis of the geographical distribution of laboratory infrastructure, organizational structure, and the availability of clinical and biochemical laboratories. The study was based on 2023 data and included 12 districts of the region, Khiva district and city, Urgench district, as well as central medical institutions (dispensaries, hospitals, polyclinics), covering a total of 153 laboratories. Laboratories were categorized into district medical associations, family polyclinics, polyclinics, rural medical points, family physician points, and other institutions; they were also classified as clinical and biochemical. The largest proportion of laboratories was located in family polyclinics (47.1%), and the smallest in rural medical points (2.0%). Geographically, the distribution of laboratories was uneven, with the majority in Khazarasp, Shovot, Bog'ot, and Kushkupir, and the fewest in Tuproqqala and Khiva. Nearly all laboratories (150/153) provide both clinical and biochemical services. The results indicate that, despite adequate numbers, the territorial imbalance limits access to diagnostic services in certain areas. The introduction of mobile laboratories and the equipping of family physician points with expanded diagnostic capabilities is recommended.

Keywords: laboratory network, geographical distribution, diagnostic accessibility, Khorezm region, clinical laboratory, biochemical laboratory.

KIRISH

Zamonaviy sog'liqni saqlash tizimining samaradorligi aholiga sifatli va o'z vaqtida laboratoriya diagnostikasi xizmatlarini ta'minlash imkoniyatiga bevosita bog'liqdir [9]. Laboratoriya tekshiruvlari kasalliklarni erta aniqlash, tashxisni aniqlashtirish, davolash jarayonini nazorat qilish hamda profilaktik chora-tadbirlarni rejalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy tadqiqotlar



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

natijalariga ko‘ra, klinik qarorlarning asosiy qismi laboratoriya tekshiruvlari natijalariga tayangan holda qabul qilinadi. Shu sababli laboratoriya xizmatlarining rivojlanish darajasi sog‘liqni saqlash tizimining umumiy samaradorligini belgilovchi muhim mezonlardan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda global miqyosda aholi salomatligini saqlash tizimida laboratoriya diagnostikasi xizmatlarining roli tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda laboratoriya xizmatlariga kirishuvchanlikning cheklanganligi infeksiyalar, onkologik hamda surunkali kasalliklarning kechikkan tashxis qo‘yilishi bilan bevosita bog‘liq ekanligi ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan [1]. Diagnostika xizmatlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi epidemiologik nazorat tizimining samaradorligini pasaytiradi, kasalliklarning asoratlanish darajasini oshiradi hamda davolash xarajatlarining ortishiga olib keladi.

Dunyo sog‘liqni saqlash tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, laboratoriya xizmatlarining hududiy tengsizligi sog‘liqni saqlash tizimining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Aholining, ayniqsa, qishloq hududlarida yashovchi qatlamining laboratoriya xizmatlariga yetarli darajada kira olmasligi sog‘liq ko‘rsatkichlarining pasayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois laboratoriya infratuzilmasini hududiy jihatdan muvozanatli rivojlantirish sog‘liqni saqlash siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish jarayonida birlamchi tibbiy-sanitariya yordam tizimini takomillashtirish, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish hamda aholining diagnostika xizmatlariga kirishuvchanligini kengaytirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Mamlakatda laboratoriya xizmatlarini qishloq hududlarigacha kengaytirish, zamonaviy diagnostika texnologiyalarini joriy etish hamda laboratoriya infratuzilmasini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan [5]. Shu bilan birga, laboratoriya xizmatlarini samarali rivojlantirish uchun mavjud infratuzilmaning hududiy taqsimoti va funksional imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Xorazm viloyati demografik ko‘rsatkichlari, aholining hududiy joylashuvi hamda sog‘liqni saqlash tizimining o‘ziga xos xususiyatlari bilan respublikaning muhim hududlaridan biri hisoblanadi. Viloyatda aholining zich joylashuvi va qishloq hududlarining kengligi laboratoriya diagnostika xizmatlarini tashkil etishda muayyan murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Ayrim hududlarda laboratoriya xizmatlari yetarli darajada rivojlangan bo‘lsa, chekka tumanlarda diagnostika xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari cheklanganligi kuzatiladi. Bu esa laboratoriya xizmatlarining hududiy taqsimotini ilmiy asosda o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Laboratoriya xizmatlarining hududiy taqsimotini o‘rganish sog‘liqni saqlash tizimida resurslarni oqilona taqsimlash, mavjud infratuzilmadan samarali foydalanish hamda laboratoriya xizmatlari sifatini oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, laboratoriya tarmoqlarining hududiy rivojlanish darajasini baholash diagnostika xizmatlariga kirishuvchanlikni yaxshilashga qaratilgan strategik rejalashtirish uchun muhim ilmiy asos yaratadi [10].

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi Xorazm viloyatida laboratoriya diagnostika xizmatlarining hududiy taqsimoti va tashkiliy tuzilmasini kompleks tahlil qilish zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalari laboratoriya infratuzilmasini rivojlantirish, diagnostika xizmatlari sifatini oshirish hamda aholining laboratoriya xizmatlariga kirishuvchanligini yaxshilashga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Sog'liqni saqlash tizimida laboratoriya-dagnostika xizmatlari kasalliklarni aniqlash, davolash samaradorligini baholash hamda profilaktika choralarini tashkil etishda muhim strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, klinik qarorlarning 60–70 foizi laboratoriya tekshiruvlari natijalariga asoslanadi. Shu sababli laboratoriya xizmatlarining hududiy joylashuvi, moddiy-texnik bazasi va tashkiliy boshqaruv tizimi sog'liqni saqlash xizmatlari sifati va samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biridir [5].

Xorazm viloyati aholisi soni bo'yicha O'zbekiston Respublikasining yirik hududlaridan biri hisoblanadi. Viloyatda 1,8 milliondan ortiq aholi istiqomat qilishi, aholining zich joylashuvi hamda qishloq hududlarining kengligi sog'liqni saqlash infratuzilmasini, ayniqsa laboratoriya xizmatlarini tashkil etishda o'ziga xos murakkabliklarni yuzaga keltiradi [8]. Aholining hududiy taqsimlanishi, transport infratuzilmasining rivojlanish darajasi va tibbiy muassasalarning joylashuvi laboratoriya xizmatlariga kirishuvchanlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayrim tumanlarda laboratoriya tarmoqlari nisbatan rivojlangan bo'lsa, chekka va qishloq hududlarida diagnostika xizmatlaridan foydalanish imkoniyati cheklanganligi ilmiy adabiyotlarda ham qayd etilgan [3].

Dunyo sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar laboratoriya xizmatlarining geografik kirishuvchanligi sog'liqni saqlash tizimining asosiy ko'rsatkichlaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Laboratoriya xizmatlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi kasalliklarni erta aniqlash imkoniyatini kamaytiradi, epidemiologik nazoratni susaytiradi hamda davolash samaradorligini pasaytiradi. Ayniqsa, uzoq qishloq hududlarida yashovchi aholining laboratoriya xizmatlariga murojaat qilish imkoniyati pastligi sog'liq ko'rsatkichlarining yomonlashishiga olib kelishi mumkin [7].

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda laboratoriya xizmatlarini optimallashtirishning bir necha samarali modeli tavsiflangan. Jumladan, markazlashtirilgan laboratoriya tizimi, mobil laboratoriyalar, hududlararo diagnostika markazlari hamda laboratoriya xizmatlarini raqamlashtirish orqali diagnostika samaradorligini oshirish mumkinligi ta'kidlanadi [1]. Markazlashtirilgan laboratoriya modeli yuqori texnologik uskunalardan samarali foydalanish, tekshiruvlar sifatini oshirish hamda moliyaviy resurslarni tejash imkonini beradi. Shu bilan birga, namunalarni transport qilish tizimini rivojlantirish laboratoriya xizmatlarining hududiy qamrovini kengaytirishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda Osiyo mamlakatlarida laboratoriya xizmatlarini modernizatsiya qilish va optimallashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Masalan, Qozog'istonda mobil laboratoriyalar tizimi joriy etilgandan so'ng qishloq hududlarida diagnostika xizmatlariga kirishuvchanlik 38 % ga oshgani aniqlangan [4,14,15]. Hindistonda laboratoriya xizmatlarini klasterlash va raqamlashtirish natijasida diagnostika jarayonining tezkorligi oshgani hamda laboratoriya xizmatlari sifati yaxshilangani kuzatilgan. Janubiy Koreyada esa laboratoriya xizmatlarini yagona elektron axborot tizimiga integratsiya qilish natijasida laboratoriya natijalarini tezkor almashish imkoniyati yaratilgan [9].

O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish jarayonida laboratoriya xizmatlarini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Davlat tomonidan laboratoriya xizmatlarini standartlashtirish, xalqaro akkreditatsiya tizimlarini joriy etish, laboratoriya uskunalarini modernizatsiya qilish hamda laboratoriya mutaxassislarini tayyorlash va qayta



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

tayyorlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan [2,13]. Biroq hududlar kesimida laboratoriya xizmatlarining rivojlanish darajasi turlicha ekanligi ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan. Shu bois hududiy laboratoriya infratuzilmasining mavjud holatini chuqur o‘rganish va tahlil qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotda Xorazm viloyatining barcha ma’muriy hududlari qamrab olindi. Tadqiqot ob’ekti sifatida 12 ta tuman, Xiva tumani, Xiva shahri hamda Urganch tumani va viloyat markaziy tibbiyot muassasalari tanlab olindi. Tadqiqot predmeti sifatida laboratoriya xizmatlarining hududiy taqsimoti, tashkiliy tuzilmasi hamda funksional imkoniyatlari o‘rganildi.

Tadqiqotda rasmiy statistik ma’lumotlar asosiy axborot manbai sifatida foydalanildi. Xususan, 2023-yil Xorazm viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasi hisobot ma’lumotlari tahlil qilindi. Laboratoriya xizmatlari tashkiliy tuzilmasiga ko‘ra quyidagi toifalarga ajratildi: TTB – tuman tibbiyot birlashmalari laboratoriyalari, OP – oilaviy poliklinikalar laboratoriyalari, poliklinikalar laboratoriyalari, QVP – qishloq vrachlik punktlari laboratoriyalari, OShP – oilaviy shifokor punktlari laboratoriyalari, Boshqa – dispanserlar, shifoxonalar va markaziy poliklinikalar laboratoriyalari. Shuningdek, laboratoriyalarning funksional yo‘nalishlari ham tahlil qilindi. Har bir laboratoriyaning klinik, biokimyoviy hamda kompleks diagnostika imkoniyatlari baholandi. Laboratoriya xizmatlarining aholi soniga nisbatan ta’minlanganlik darajasi ham alohida hisoblab chiqildi.

Tadqiqotda statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Ma’lumotlar Microsoft Excel dasturi yordamida qayta ishlanib, laboratoriyalar soni, ularning hududiy taqsimoti, funksional imkoniyatlari hamda tashkiliy tuzilmasi bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlar hisoblab chiqildi. Shuningdek, laboratoriya xizmatlarining hududiy nomutanosibliqi taqqoslash usuli orqali baholandi.


Mazkur metodologik yondashuv laboratoriya xizmatlarining hududiy taqsimotini kompleks baholash, mavjud muammolarni aniqlash hamda laboratoriya infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari hududiy sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, laboratoriya xizmatlari sifatini oshirish hamda aholining diagnostika xizmatlariga kirishuvchanligini yaxshilashga xizmat qiladi.

NATIJALAR

Tahlil natijasida Xorazm viloyatida jami 153 ta laboratoriya faoliyat yuritayotgani aniqlangan bo‘lib, ulardan 150 tasi ham klinik, ham biokimyoviy laboratoriya sifatida ishlaydi. Faqat Xiva tumanida 2 ta laboratoriya faqat klinik funksiya bajaradi (biokimyoviy laboratoriya yo‘q), shuning uchun umumiy klinik laboratoriya soni 150, biokimyoviy esa 150 hisoblanadi. Laboratoriyalar tashkiliy jihatdan quyidagicha taqsimlangan: 72 ta (47,1%) — oilaviy poliklinikalarda (OP), 31 ta (20,3%) — oilaviy shifokor punktlarida (OShP), 20 ta (13,1%) — poliklinikalarda, 12 ta (7,8%) — tuman tibbiyot birlashmalarida (TTB), 7 ta (4,6%) — boshqa tibbiyot muassasalarida, 3 ta (2,0%) — qishloq vrachlik punktlarida (QVP).

Quyidagi jadvalda Xorazm viloyati bo‘yicha laboratoriyalarning tashkiliy hamda geografik taqsimoti to‘liq keltirilgan:

Laboratoriyalar soni



1- jadval. Xorazm viloyati bo'yicha laboratoriyalarning tashkiliy hamda geografik taqsimoti

Geografik taqsimot jihatidan eng ko'p laboratoriya Xazorasp tumanida (14 ta), Shovot, Bog'ot hamda Qo'shko'pir tumanlarida (har birida 13 tadan) mavjud. Aksincha, Tuproqqal'a tumanida atigi 5 ta laboratoriya ro'yxatga olingan bo'lib, bu viloyatdagi eng past ko'rsatkichdir. E'tiborga loyiq tomoni shundaki, Tuproqqal'adagi barcha laboratoriyalar faqat OShP larda joylashgan, poliklinika yoki TTB larda laboratoriya yo'q (1-jadval).

Xiva shahri (tuman ahamiyatidagi shahar) atigi 3 ta laboratoriyaga ega, bu esa aholi zichligi bilan solishtirganda aniq yetishmovchilikdir. Xiva tumanida esa 15 ta laboratoriya mavjud, lekin ulardan 2 tasi faqat klinik laboratoriya sifatida ishlaydi. Markaziy muassasalar (dispanserlar, shifoxonalar, markaziy poliklinikalar) jami 19 ta laboratoriyani tashkil qiladi.

MUHOKAMA

Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, laboratoriya infratuzilmasi umuman yetarli bo'lsa-da, uning taqsimoti aholi zichligi yoki epidemiologik ehtiyojlarga mos kelmaydi. Tuproqqal'a kabi tumanlarda laboratoriya sonining juda kamligi aholining diagnostika xizmatlariga kirishuvchanligini keskin cheklaydi.

Xalqaro tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, laboratoriya xizmatlariga kirishuvchanlikning past darajasi bemorlarning kasallik bosqichini kechikkan aniqlashiga, natijada esa davolanish samarasizligi va o'lim xavfini ortishiga sabab bo'ladi [2,7,12]. Mobil laboratoriyalar kabi yechimlar Hindiston, Nepal va Qirg'izistonda muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda [9,10,11].

Shuningdek, oilaviy shifokor punktlari hozirda laboratoriya infratuzilmasining muhim qismi sifatida ajralib turadi (20,3%), bu esa birinchi yordam tizimini rivojlantirish siyosatining to'g'ri yo'nalishda ekanligini ko'rsatadi. Biroq, ba'zi hududlarda (masalan, Tuproqqal'a) OP lar mavjud emasligi tufayli OShP lar yagona laboratoriya manbai hisoblanadi — bu esa diagnostika imkoniyatlarini cheklaydi.

Xorazm viloyatida laborator-diagnostik xizmatlar tarmog'i miqdoriy jihatdan shakllangan bo'lsa-da, laboratoriyalar tarkibi bo'yicha muayyan nomutanosibliklar mavjud. Klinik va biokimyoviy laboratoriyalar ustunlik qilayotgan bir paytda, tor ixtisoslashgan laboratoriyalar ulushi nisbatan pastligicha qolmoqda. Bu holat diagnostika xizmatlarining chuqurligi va ixtisoslashgan



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

yo‘nalishlarda yanada rivojlanishga ehtiyoj borligini ko‘rsatadi. Shuningdek, laboratoriyalar tarmog‘ining hududiy joylashuvi tahlili Xorazm viloyatida laborator-dagnostik xizmatlar tarmog‘i shakllanganligini, biroq ularning tumanlar kesimida rivojlanish darajasi bir xil emasligini ko‘rsatdi. Laboratoriyalar soni va tarkibi hududlarning demografik xususiyatlari, tibbiyot muassasalari zichligi hamda ixtisoslashuv darajasiga bevosita bog‘liq ekanligi aniqlandi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Xorazm viloyatida laborator-dagnostik xizmatlar miqdoriy jihatdan shakllangan bo‘lib, aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Viloyat hududida mavjud laboratoriyalar soni va ularning faoliyati tibbiy tashxis qo‘yish jarayonini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, laboratoriya xizmatlarining hududiy joylashuvi va ixtisoslashuv darajasi barcha tuman va shaharlarda bir xil darajada emas. Ayrim hududlarda laboratoriya xizmatlari yetarli darajada rivojlangan bo‘lsa, ayrim chekka hududlarda ushbu xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari cheklangan.

Shuningdek, laboratoriya xizmatlarining moddiy-texnik bazasi, zamonaviy diagnostik uskunalar bilan ta‘minlanganlik darajasi ham hududlar kesimida farqlanadi. Bu esa ayrim kasalliklarni erta aniqlash va sifatli tashxis qo‘yish jarayoniga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli laboratoriya xizmatlarini rivojlantirishda hududlar kesimida muvozanatni ta‘minlash, mavjud laboratoriyalarni modernizatsiya qilish hamda yuqori malakali mutaxassislar bilan ta‘minlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Kelgusida laboratoriyalar tarmog‘ini rivojlantirishda har bir tumanning demografik ko‘rsatkichlari, aholi soni, kasallanish tuzilmasi, epidemiologik vaziyat hamda mavjud tibbiy infratuzilma imkoniyatlarini chuqur o‘rganish asosida rejalashtirish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish, laboratoriya xizmatlarini raqamlashtirish hamda markazlashgan diagnostik tizimlarni yaratish xizmatlar sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, Xorazm viloyatida laborator-dagnostik xizmatlarni hududiy jihatdan maqbul joylashtirish, ularning ixtisoslashuvini kengaytirish hamda tashkiliy boshqaruv tizimini takomillashtirish aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, kasalliklarni erta aniqlash va profilaktika ishlarini samarali tashkil etishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bates I, et al. The role of laboratory services in achieving universal health coverage. Bulletin of the World Health Organization. 2020;98(5):348–354.
2. Dhillon RS, et al. Mobile health clinics in low-resource settings: a systematic review. Global Environmental Change. 2023; 78:102642.
3. Kyobutungi C, et al. Geographic access to diagnostic services in low-resource settings. International Journal for Equity in Health. 2021; 20:45.
4. Matkarimova DS, et al. Regional disparities in diagnostic accessibility: evidence from Central Asia. Central Asian Journal of Public Health. 2024;8(1):112–120.
5. Ministry of Health of the Republic of Uzbekistan. Concept for the Development of Primary Health Care (2023–2027). Tashkent; 2023.



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

6. Nurmatov A, et al. non-communicable disease burden and health system response in Central Asia. *Central Asian Journal of Global Health*. 2022;11(1):112–125.
7. Pai M, et al. Point-of-care diagnostics for global health: a roadmap for equity. *Nature Medicine*. 2022;28(10):2021–2028.
8. State Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. *Population Census Data 2023*. Tashkent; 2024.
9. World Health Organization. *Laboratory strengthening for integrated health services*. Geneva: WHO; 2021.
10. Zaidi S, et al. Diagnostic gaps in rural health systems: evidence from South Asia. *Health Policy and Planning*. 2019;34(7):512–520.
11. Citaristi, Ileana. "World Health Organization—WHO." *The Europa Directory of International Organizations 2022*. Routledge, 2022. 380-395.
12. World Health Organization. *WHO benchmarks for strengthening health emergency capacities*. World Health Organization, 2024.
13. Trapani, Dario, et al. "WHO model list of essential in vitro diagnostics: strengthening diagnostics capacity to transform health care for all." *The Lancet Global Health* 12.3 (2024): e364-e365.
14. Simões D. et al. Integrated use of laboratory services for multiple infectious diseases in the WHO European Region during the COVID-19 pandemic and beyond //Eurosurveillance. – 2022. – T. 27. – №. 29. – C. 2100930.
15. Kurbanova.N.N., Baxtiyorova.A.M. HUDUDDA LABORATORIYA XIZMATLARINI TASHKIL QILISHNING ASOSIY TENDANSIYALARI VA MUAMMOLARI. *Zamonaviy klinik laborator tashxisi dolzarb muammolari*, 2022, №1. B. 28-29.